

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.4 Issue 09 | pp. 109-116 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



**Kalandarova Elnura Muzaffar qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qtuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish davrida barqaror rivojlanishga erishish va bu yo'nalishda samarali usullardan foydalanish bo'yicha tahlillar olib boriladi. O'zbekiston hududlarida ishlab chiqarishni ko'kalamzorlashtirish maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarini qayta tashkil etish, isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** ekologik muammo, yashil iqtisodiyot, xorijiy tajriba, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, mintaq.

#### Kirish

XX asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o'zgarib ketdi. 1900 yilda dunyo aholisi 1,6 mlrd. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda ushbu ko'rsatkich 6 mlrd. kishidan oshdi, 2017 yilga kelib esa er yuzidagi aholi soni 7,6 mlrd. kishini tashkil etmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi jahon bo'yicha deyarli ikki marta oshib, kambag'allik darajasi 3 martadan ko'proqqa kamaydi. Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta'sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o'sishi dunyo aholisi sonining jadal sur'atlarda ortishiga sabab bo'ldi. Fan texnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini ta'minlab berdi. Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3,6 martaga o'sgani holda, dunyo yalpi ichki mahsuloti miqdori 18 martadan ko'proqqa ortgan.<sup>1</sup>

Tahlillar ko'rsatishicha, dunyo aholisining ko'payishi va iqtisodiy o'sishning muntazam ravishda atrof muhitga bo'lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So'ngi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000 yilda 1900 yilga nisbatan) oshdi, tropik o'rmonlarning yo'qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,5 martaga ko'paydi. Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o'zgarishlari o'rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.<sup>2</sup>

"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish orqali esa aynan shu muammolarni hal etish mumkin. Bu muammolar mamlakatimiz uchun ham ahamiyatga ega va shuning

<sup>1</sup> Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). [http://www.ggdc.net/maddison/Historical\\_Statistics/horizontal-file\\_03-2007.xls](http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls).

<sup>2</sup> Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). [http://www.ggdc.net/maddison/Historical\\_Statistics/horizontal-file\\_03-2007.xls](http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls).

uchun ham mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun jiddiy ahamiyat qaratilmoqda va yuqorida aytib o‘tilganidek “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish strategiyasi aynan shu maqsadlarga erishishda qo‘l keladi. Unga ko‘ra, bu borada bir qator yo‘nalishlar belgilab qo‘yilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qo‘yilgan masala muammosi ko‘rib chiqishda ekspert baholash, deduksion va induksion belgilash yondashuv yetakchi usuli bo‘ldi.

### **Taxlil va natijalar.**

Mamlakatimizda “yashil energetika”ni rivojlantirishda dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 oktyabrda Frantsiya Respublikasiga rasmiy tashrifi davomida “Total Eren SA” (Fransiya) kompaniyasi bilan Samarqand viloyatida umumiy quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektr stantsiyani loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va ishlatish to‘g‘risida hamkorlik bitimi imzolanganligi, ushbu investisiya loyihasini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasida ish yuritadigan “Tutly Solar” mas‘uliyati cheklangan jamiyati shaklida xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonaga ta‘sis etildi. 2019 yil 13 sentyabrda investor va loyiha kompaniyasi o‘rtasida investisiya bitimi tuzildi. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ va loyiha kompaniyasi o‘rtasida elektr energiyasini sotib olish to‘g‘risida bitimga muvofiq loyiha doirasida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan yagona xaridor sifatida sotib oladi.<sup>3</sup>

Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo‘yicha investisiya loyihalarining ro‘yxatiga ko‘ra 2017-2025 yillarda umumiy qiymati 5,3 mlrd. dollar bo‘lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda. 2017-2021 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari, unda normativ-huquqiy hujjatlarni, manzilli dasturlarni ishlab chiqish va boshqa ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha 28 ta chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishning 49,3 foizi, korxonalarining o‘z mablag‘lari, 40,8 foizi xorijiy investisiyalar va kreditlar, 7,3 foizi O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, 2,6 foizi tijorat banklarining kredit resurslari hisobidan amalga oshiriladi. Loyihalarning texnologik tarkibi tahlili ularning 79,3 foizi yangi quriladigan, 20,7 foizi esa modernizatsiyalanadigan loyihalar ekanligini ko‘rsatmoqda.<sup>4</sup>


Mamlakatda elektr energiyasini ishlab chiqarishning umumiy quvvati 14,1 GW bo‘lib, ulardan 85,8% issiqlik elektr stantsiyalariga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot va aholining o‘sishi bilan elektr energiyasi va ishlab chiqarishga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda.

Prognozga ko‘ra, O‘zbekistonda 2019-2025-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish 2025-yilga nisbatan 40 foizga oshadi va 2018-yilga nisbatan 84,9 milliard kilovatt-soatga yetadi. Mavjud elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatini 2,5 barobar oshirish rejalashtirilmoqda, bu esa 2030-yilga kelib yillik elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish imkonini beradi.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 may kuni “Samarqand viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektr stantsiyani qurish” investisiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4712-son qarori. www.xalq so‘zi.uz

<sup>4</sup> www.stat.uz

Xuddi shunday yuqoridagi har bir yo'nalishni rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi.



### 2.3.1-rasm. O'zbekistonda CO<sub>2</sub> emissiyasi ko'rsatkichi (2005-2020)<sup>5</sup>

Rasmdan ko'rinib turibdiki, amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini bergan va mamlakatda CO<sub>2</sub> emissiyasi ko'rsatkichi sezilarli darajada pasaygan (2.3.1).

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnik salohiyatga ega bo'lib, uning 97 foizi quyosh energiyasining ulushiga to'g'ri keladi. Jumladan, respublikadagi quyosh nuridan energiya ishlab chiqarish salohiyati yiliga 525-760 mlrd. kVt.s. ni tashkil etadi. Buning sababi, mamlakatimizda quyoshli kunlar yiliga o'rtacha 320 kunni va faol quyosh nurlari 3000 soatni tashkil etadi.

Shu bilan birga, O'zbekistondagi shamol energetikasining hisobiy salohiyati 500 GVtni yoki amaldagi energotizimdan 30 barobar ko'p bo'lgan quvvatli qurilmalarni joylashtirish imkonini beradi<sup>6</sup>.

O'zbekistonda yoqilg'i-energetika resurslarining hozirgi hajmda iste'mol qilinishi davom etsa, ular mamlakatning yoqilg'i-energetikaga bo'lgan ehtiyojini 20-30 yil davomida ta'minlab berishi bashorat qilingan. Shu sababli ham iqtisodiyotni yashillashtirish jarayonini ushbu sohaga keng targ'ib etish, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi, alternativ energiya manbalaridan foydalanish darajasini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, BMT "Atrof muhit muhofazasi va taraqqiyot xalqaro komissiyasi" ning hisobotida "Kelajak rivojlanishi, ravnaqi shunday energiyalardan foydalanish formasi, ya'ni, atrof muhit holatiga zarar etkazmaydigan, xavfsiz, tiklanadigan, kafolatlangan, doimiy o'sib, tiklanib boruvchi va foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan energiyalarga bog'liq bo'lib qoladi", deya qayd etilganligini e'tirof etish joiz. O'zbekistonning quyosh energiyasi bo'yicha yalpi salohiyati 50973 mln. tonna neft ekvivalentiga (mln.t.n.e.) teng bo'lsa, shamol energiyasining yalpi salohiyati 2,2 mln.t.n.e. deb baholanadi. Bu sohada yurtimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

<sup>5</sup> <https://yearbook.enerdata.net/co2-fuel-combustion/CO2-emissions-data-from-fuel-combustion.htm>

<sup>6</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

- O'zbekistonda Markaziy Osiyoda yagona ilmiy-eksperimental markaz — Fanlar akademiyasining “Fizika-Quyosh” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil qilingan bo'lib, uning tadqiqotlari natijalari jahon miqyosida e'tirof etildi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi “2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida”gi Qarori ijrosi doirasida “Eko-energiya” ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Qashqadaryo viloyatidagi Kasbi, Kitob va Shahrisabz tumanlarining chekka qishloqlari – Komilon, Yuqori Maymanoq, Varganzadagi qishloq ta'lim va tibbiyot muassasalariga quyosh batareyalari o'rnatildi;
- 2014 yilda “O'zbekenergo” kompaniyasi tomonidan Janubiy Koreya fotoelektr sanoati uyushmasi bilan hamkorlikda Namangan viloyatining Pop tumanida sinov tariqasida quvvati 130 kVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushdi;
- 2016 yilning aprel oyining boshida Buxoroda MDH da yagona bo'lgan 1,2 mVt quvvatiga ega ko'chma, avtonom quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi;
- Samarqand viloyatida quvvati 100 kVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilmoqda;
- O'zbekistonda 2030 yilgacha issiqlik-energiya balansining konsepsiyasini shakllantirish vazifasi qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, mamlakatning umumiy energiya balansida tiklanuvchan energiya resurslari, xususan gidroenergentika, quyosh va shamol generatsiyasining ulushini 10 foizdan 20 foizgacha, ko'mir hissasini esa, 5 dan 15 foizgacha oshirish, shu bilan birga gaz generatsiyasi ulushini 85 dan 65 foizga pasaytirish nazarda tutilgan.

Natijada esa, qayta tiklanuvchi energiya sohasida yashillashtirish jarayonini olib borish 2050 yilga kelib umumiy energiya ishlab chiqarish hajmida uglevedorodlar hajmini 50 foizgacha qisqartirish imkonini yaratishi mumkin.

Transport sohasida yashillashtirishning yo'qligi sababli ushbu sohada \$722,9 mln. yo'qotilmoqda edi. Shu sababli ham, O'zbekistonda transport vositalarining ekologik xavfsizligini oshirish masalasi ham iqtisodiyotni innovatsion modernizatsiya qilishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar qatoriga transport vositalari tomonidan ishlatiladigan yoqilg'ining energetik samarasini oshirish, yoqilg'ining “yashil” alternativ turlaridan foydalanish, “yashil” elektrodvigatellardan foydalanishni kiritishimiz mumkin. Quyosh batareyalari orqali harakatlanuvchi transport vositalarining keng joriy qilinishi atrof muhitga chiqarilayotgan turli xildagi chiqindilar hajmining kamayishi, shaharlar ekotizimining yaxshilanishiga olib keladi.

Yashil iqtisodiyotning keng joriy qilinishi uy-kommunal xo'jaligi tizimining modernizatsiya qilinishini talab etadi. Buning uchun passiv-quyosh isitish texnologiyasini joriy qilish, binolarda qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish, issitish tizimini isloh qilish kabi vazifalar amalga oshirilishi kerak. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan islohotlar yurtimizda 2020 yilga kelib 15 ming, 2050 yilda esa 120 ming yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkonini beradi.

O'zbekistonda bugungi kunga kelib, mavjud poligonlarda 370 mln.m<sup>3</sup> dan ortiq chiqindi to'plangan. Ularni qayta ishlashga jalb etilmaganligi sababli, chiqindilarni saqlash va utilizatsiya qilish uchun sarf etilayotgan mablag'lar iqtisodiyotga \$611,6 mln.ga teg

bo'lgan umumiy zarar keltirmoqda. Bu muammoni hal etishning usuli chiqindilarni qayta ishlashga moslashgan zavodlarni qurish, aholining chiqindi mahsulotlarini tashlash madaniyatini rivojlantirish (chiqindilarni turiga qarab ajratish), zarasizlantirishning imkoni yo'q bo'lgan turli xildagi chiqindilarni qabul qiluvchi shaxobchalarni joriy etish, oziq-ovqat va xo'jalik mahsulotlari iste'molida isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik lozim.

Tabiiy va energetika resurslaridan barqaror va samarali foydalanish orqali bozor iqtisodiyotiga o'tish O'zbekistonga atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, iqlim o'zgarishiga moslashish, shuningdek, tabiiy ofatlarga samarali javob choralarni ko'rish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, mamlakat uglevodorod resurslaridan ekstensiv foydalanish hisobiga iqtisodiy o'sish yo'lidan voz kechib, Markaziy Osiyoda "yashil" iqtisodiyotning yetakchisiga aylana oladi.

"Jahon banki O'zbekistonni "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari bo'yicha qo'llab-quvvatlashdan mamnun. Biz Hukumat bilan ishimizni davom ettiramiz va manfaatdor davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari va boshqa tomonlarning ushbu yo'nalishdagi hamkorligini yanada rivojlantirishga ko'maklashamiz. Biz ITKQV va boshqa hamkorlar bilan birgalikda bir qator qo'shma tadbirlarni amalga oshirdik. Masalan, ilgariroq biz tomonimizdan: "O'zbekiston: innovatsion va "yashil" kelajakni tanlash", iqlim va atrof-muhitni institutsional baholash va milliy iqtisodiyotni karbonsizlash bo'yicha uzoq muddatli strategiya-hisoboti nashr qilingan edi." — dedi Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli. "Jahon banki guruhining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston bilan hamkorlik yangi dasturi hukumatning "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'shimcha moliyaviy va tahliliy jihatdan qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi".<sup>7</sup>

Shu o'rinda Strategiya bilan tasdiqlangan va iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish hamda iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrashga qaratilgan quyidagi 10 ta maqsadli parametrlarning tasdiqlanishini yuqoridagi muammoli vaziyatlarni yumshatishga xizmat qiladi:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish;
- ikki karra energiya samaradorligi ko'rsatkichini oshirish va yalpi ichki mahsulot uglerod sarfi hajmini kamaytirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- 100 foizgacha aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash;
- sanoat korxonalarini infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz

<sup>7</sup> [www.minieconomy.uz](http://www.minieconomy.uz)

texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta'minlash;

- energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilangan tavsiflarga ega motor yoqilg'isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, elektr transportini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40 foizgacha oshirish;
- yerlarning tanazzulga uchrashi bo'yicha neytral balansga erishish;
- asosiy turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha hosildorligini 20-25 foizgacha oshirishga erishishdir.<sup>8</sup>

Xususan, bugungi kunda dunyo bo'yicha "yashil" iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global "yashil" iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda "Yashil" o'sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlari keng qo'llanilmoqda.

"Yashil" o'sish indeksi 4 ta maqsadli yo'nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo'lib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi.

"Yashil" o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori "yashil" o'sish ko'rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari o'rin egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg'iziston mazkur reyting bo'yicha yuqori o'rindagi ko'rsatkichlarni qayd etgan.

O'zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda qayd etilgan. Mamlakatning mazkur indeksda "Ijtimoiy qamrov" (Social inclusion) hamda "Tabiiy kapital himoyasi" (Natural capital protection) ko'rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo'lsa, "Resurslardan samarali va barqaror foydalanish" (Efficient and sustainable resource use), "Yashil" iqtisodiy imkoniyatlar (Green economic opportunities) yo'nalishdagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud.<sup>9</sup>

Har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish:

1. milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga;
2. resurslardan samarali foydalanishga;
3. yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga;
4. xalqaro bozorlarda mamlakat nufuzining oshishiga olib keladi va eng asosiysi aholining farovon yashashini ta'minlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, barcha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar faqat bitta maqsadga– aholi farovonligini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va xalqimizni rozi qilishga yo'naltirilgandir.

<sup>8</sup> [www.minieconomy.uz](http://www.minieconomy.uz)

<sup>9</sup> [www.minieconomy.uz](http://www.minieconomy.uz)

Respublikamiz hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari energiyasidan foydalanish bo'yicha zahiralari hali to'raligicha ishga solinmagan va ular bo'yicha hududiy manzilli dasturlar ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Vaholanki, yurtimizda muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari katta. Aytaylik, respublikamizda yilning asosiy qismi 300 kun quyoshlidir, ekspertlarning fikriga ko'ra uning kuvvati 50 trillion 973 million tonna shartli yoqilg'iga teng bo'lib, mamlakatimizda aniqlangan jami energiya zahiralari nisbatan ancha ko'pdir. Qolaversa, yurtimiz tabiiy sharoiti quyosh va shamol energetikasidan birgalikda foydalanish uchun qulaydir. Ayniqsa, mamlakatimizda kichik turdagi muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Serquyosh o'lkamizda ham "quyoshli uy"lar qurish, ularni quyosh nuri bilan isitish, issiq suv va fotoelektrik energiya bilan ta'minlash imkoniyati yuqori. Yurtimizda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishga qaratilgan innovatsiya loyihalarining ishlab chiqilishi, ularga mahalliy va xorijiy sarmoyaviy manbalarning keng jalb etilishi mazkur soha istiqbolini ta'minlashga munosib xizmat qiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, yashil iqtisodiyot mavjud resurslardan tejamkorona foydalangan holda har tomonlama zararsiz ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish hamda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tizimdir. Yashil iqtisodiyot nazariyasining bugungi kunda bu qadar keng quloch ochishining asosiy sababi, bu mavjud ekologik muammolarning global ahamiyat kasb etayotgani hamda yashil iqtisodiyot taklif etayotgan tovar va xizmatlarning aholi ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilganligida deyish mumkin. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni keng joriy etish mamlakat tabiiy resurslaridan yanada oqilona foydalanish, turli xil ekologik muammolarni bartaraf etish, aholining ekosavodxonligini oshirgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga sharoit yaratadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bu yunalishni shakllantirish va rivojlantirish uchun yurtimizda barcha imkoniyat va sharoitlar mavjuddir. Bu yo'nalishda esa quyidagilarga alohida etibor qaratish lozim:

- huquqiy-normativ bazasini shakllantirish;
- Islohotlarni izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- Iqtisodiyot tarmoqlarini, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ularni yashillashtirishga ichki va tashqi investitsiyalarni keng jalb etish;
- Aholining eko-madaniyatini oshirish;
- Davlat va jamiyat manfaatlarini mushtarakligini inobatga olgan holda, ushbu sohani rivojlantirishda ularning o'zaro hamkorligi ta'minlash;
- Yashil iqtisodiyotni shakllantirish borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, oqilona iqtisodiy siyosat olib borayotgan har bir mamlakat uchun rivojlanishning innovatsion bosqichiga o'tishda iqtisodiyotni yashillashtirish jarayoni muqarrar vazifadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 14 iyuldagi «Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-628 son Qonuni
2. Yashil iqtisodiyot: darslik. /A. V. Vaxabov, Sh. X. Hojibakiev va boshqalar. - Toshkent.: "Universitet", 2020.
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, «XXI asr: fan va ta'lim masalalari» ilmiy elektron jurnali. №2, 2017 yil
4. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti, «Iqtisodiyot va ta'lim» ilmiy jurnali, №2, 2017
5. Barqaror iqtisodiy o'sish va uni ta'minlash bosqichlarining tahlili, «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2014 yil
6. «Iqtisodiy o'sish» darslik, Termiz Davlat universiteti, 2009 yil
7. «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2017 yil
8. William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012
9. Аткиссон А.Р. Как устойчивое развитие может изменить мир. М., 2012. 255 с.
10. Гаврилов В.Н. Общество и природная среда. М., 2006. 334 с
11. Перелет Р.А. Переход к эре устойчивого развития./Россия в окружающем мире: 2003 (Аналитический ежегодник). – М.: Изд-во МНЭПУ, стр. 10-30, 2003
12. [http://www.ggdc.net/maddison/Historical\\_Statistics](http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics)
13. <https://review.uz/ru/post/vozobnovlyaemaya-energiya-dlya-ustoychivogo-razvitiya>
14. yearbook.enerdata.net
15. www.minieconomy.uz

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

